

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARINING YOSHLAR TA'LIM TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

*UrDU Magistratura bo'limi
Pedagogika nazariyasi va tarixi
(faolitayti turi bo'yicha) 2-bosqich magistranti
Palvannazirova Yulduz*

Annatsiya: Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarining yoshlar ta'lim, tarbiyasi, kelajak hayotida qanchalik muhim vositalardan biri ekanligi to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'z: Ta'lim, tarbiya ta'fsir, xadis, al-azhar, silai rahim,

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda buning yorqin misoli sifatida turli savodxonlik kitobxonlik tanlovlarining va fanlar doirasida olimpiadalar bo'layotgini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta'lim tarbiyasida asosiy vosita bu faqat kitobdir deya ta'kidlab kelmoqda. [1]

Shu munosabat bilan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining ilmiy merosini o'rganish, kitoblarni chop etish yozgan asarlarini yoshlar orasida kengroq targ'ib qilish masalari bo'yicha topshiriqlar berdi. Bu bejiz emas. Shayx hazratlari nafaqat diniy, balki ma'rifiy, tarixiy, axloqiy, ijtimoiy mavzularda bir qancha asarlar yozib yosh avlodga meros qilib qoldirgan. Hozirgi paytda Shayx hazratlarining asarlari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Hozirgi kunda Shayx hazratlarining asarlari ingliz, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa tillarga tarjima qilingan. Yaqinda turk tiliga ham tarjima qilinib, nashrga tayyorlandi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning kitoblari keng ilmiy asosga ega bo'lib, qo'shni mamlakatlar, Rossiya va Evropada ham o'rganilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan islom dinining asl mohiyatini targ'ib etish, yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga qaratilgan ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning turli tillarda chop qilingan asarlari yosh avlod uchun ulkan tarbiya va ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi. Shayx hazratlarining barcha asarlari yoshlar ta'lim tarbiyasida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. [2]

Xususan Baxtiyor Oila"asari "Ushbu kitob Islom dinining oilaviy munosabatlarga oid ahkomlarining keng va batafsil sharhi bo'lib, musulmon kishi oilaviy hayotga oid bilishi lozim bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Mazkur asarda er-xotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, ota-onaga, qaynota-qaynonaga munosabat, kelin va kuyov tanlash, aqiyqa, farzand tarbiyasi, silai rahm, taloq, idda va shu kabi ko'plab dolzarb mavzulardagi ta'limotlari orqali bugungi kunda qator

muammolar muhokama qilinadi, oyatlar, hadislar hamda salaf solihlarning hayoti misolida musulmonning baxtli oilaviy hayot dasturi ko‘rsatib beriladi.

Uch jildlik “Ruhiiy tarbiya” to‘plami Ushbu majmua “Poklanish”, “Tiklanish” va “Hulqlanish” deb nomlangan uch jilddan iborat bo‘lib, ularga nafsni poklash, ahloqni sayqallash kabi ruhiy kamolot bosqichlariga oid masalalar kiritilgan, nafs va qalbdagi turli xastaliklarning bayoni va ulardan poklanish yo‘llari, ruhiy kamolotning bosqichlariga oid qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

“Tafsiri Hilol” mo‘tabar tafsirlarning an‘analariga sodiq qolgan holda, bugungi kun kitobxonining saviyasi, dunyoqarashi va ehtiyojlarini ham hisobga olib yozilgan bo‘lib, o‘quvchini Qur‘oni karim ma‘nolarining bitmas-tuganmas hikmatlariga oshno etadi

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining “Hadis va Hayot” silsilasi mashhur alloma, Qohiradagi “al-Azhar” dorilfununi mudarrislaridan biri shayx Mansura Ali Nosif hazratlarining “At-toj al-jome’ lil-usul fii ahadiysur Rasul” (“Rasul sollallohu alayhi vasallamning hadislaridan asllarni jam qiluvchi toj”) deb nomlangan ulkan asarlariga yozilgan komil va shomil sharhlardan iborat to‘plamdir.[3]

“Hadis va Hayot” silsilasining dastlabki juzlari chop etilishi bilan kitobsevarlarning sevimli asariga aylanib, ko‘plab muxlislarning javonlaridan, mo‘min-musulmonlarning qalbidan chuqur va munosib o‘rin oldi.

“Hadis va Hayot” silsilasidagi kitoblar nomi

1-juz Muqaddima

2-juz Islom va Iymon kitobi

3-juz Niyat, Ixlos va Ilm kitobi

4-juz Poklik kitobi

5-juz Namoz kitobi-1

6-juz Namoz kitobi-2

7-juz Namoz kitobi-3

8-juz Zakot kitobi

9-juz Ro‘za kitobi

10-juz Haj va Umra kitobi

11-juz Savdo, Ziroat va Vaqf kitobi

12-juz Faroiz va Vasiyat kitobi

13-juz Nikoh, Taloq va Idda kitobi

14/15-juzlar Qasamlar, nazrlar va ov kitobi

16/17-juzlar Taom, sharob va libos kitobi

18-juz Tib va Dam kitobi

19-juz Olamlarga rahmat payg‘ambar

20-juz Anbiyolar qissasi

- 21-juz Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumo
- 22-juz Usmon va Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhumo
- 23-juz Jannat bashorat berilganlar va ahli bayt
- 24-juz Peshqadamlar roziyallohu anhum
- 25-juz Nubuvvat xonadoni xonimlari
- 26-juz Ansorlar roziyallohu anhum
- 27-juz Axyorlar va Diyorlar fazli
- 28-juz Tafsir kitobi
- 29-juz Tafsir, Tush va Masallar kitobi.
- 30-juz Qur'on fazilatlarini kitobi
- 34-juz Yaxshilik va Axloq kitobi
- 35-juz Duolar, Zikrlar, Istig'for va Tavba
- 36-juz Zuhd va Raqoiqlar kitobi.
- 37-juz Adab kitobi[4]

Xulosa qilib aytadigan no'lsak Hozirgi globalashuv jarayonida yoshlar ta'lim tarbiyasida o'ziga xos qiyinchiliklar mavjuddir. ayniqsa yosh avlodni kitob o'qisha uni sevishga o'rgatish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirmoqda lekin Shayx hazratlarining asarlari o'zining sermazzmunlilik bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda Chunki mazkur asarlardan har qanday shaxs o'zini qiynab kelayotgan savollarga javob topishi va turli xil ixtiloflarga yechim topishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojatnomasi: 28.12.2018. yil
2. Islom uz sayti.
3. Kun. uz xabarlarini
4. Muslimat uz sayti